



## SUBYEKTIV MODALLIKNING IFODALANISHI

Akramjonova Gulandom Ibrohimjon qizi

ADPI 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada universal kategoriya hisoblangan modallik hadida, modallikni ifodalovchi grammatik shakllar haqida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** ijtimoiy fanlar, lingvistika, obyektiv modallik, subbyektiv modallik, ekspressiv baho, mayl, modal soʻz, yuklama, intonatsiya, leksik takror.

Modallik shaxs va zamon maʼnolari bilan birgalikda predikativlik kategoriyasini hosil qiladi. Modallik obyektiv va subyektiv boʻlishi mumkin. Obyektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkonsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi)ni anglatadi hamda grammatik va leksik vositalar (mayl, modal soʻz, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa soʻzlovchining aytilayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho)ga munosabatini koʻrsatadi va soʻz tartibi, intonatsiya, leksik takror, modal soʻz, yuklama, undov, kirish soʻz, soʻz birikmasi va kirish gaplar bilan ifodalanadi.

Tilshunos Sh.Shoaabdurahmonov va boshqalar tomonidan yozilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida modallik kategoriyasi va uning ifodalanishiga doir berilgan fikrlarda modallikning sintetik va analitik usullarda yasalishini eʼtirof etadi.

Sintetik formalar harakatning turli nuqtai nazardan xarakteristikasini – harakatning takroriyligini, davomlilikini harakatning kuchsiz darajasini koʻrsatuvchi forma feʼlga -la, -kila (-gila, -gʻila, -qila); -(i)nqira, -(i)msira affikslarini qoʻshish orqali hosil qilinishini aytadilar: ishqqa — ishqqala, sava — savala, turt — turtkila, choʻz — choʻzgʻila, yugur — yugurgila, tort — tortqila, tep — tepkila; oqar — oqarinqira, qoʻrq — qoʻrqinqira, kul — kulimsira kabi.

Modal maʼnoning ifodalanishida analitik shakl hisoblangan koʻmakchi feʼllar va toʻliqsiz feʼl yordamida yasaluvchi formalar alohida oʻrin tutishi ham alohida taʼkidlanadi. Koʻmakchi feʼllar harakatning turlicha xarakteristikasini koʻrsatuvchi, shuningdek, turli modal maʼnolarii ifodalovchi formalarini yasash uchun xizmat qilishi, hozirgi oʻzbek tilida



butunlay ko‘makchi fe’lga aylangan (mustaqil ma’nosini yo‘qotib, faqat ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llanadigan) fe’lning yo‘qligi, ayrim mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llanishi va turli-tuman ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilishi haqida ham fikrlar berilib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llanadi deb ko‘rsatadi: boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit (bitir), ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o‘l, o‘t, yet, ko‘r, qara, boq, yoz<sup>40</sup>.

1. Tilshunoslikda modallik kategoriyasi pragmatik yo‘nalishining shakllanishiga asos bo‘lgani holda, o‘zining rivojlanish jarayonining ilk bosqichlarida gap mazmunining voqelikka nisbatan munosabatini qamrab oladi.

2. Modallik atamasi ilk bor mantiqshunoslik fanining tadqiqot obyekti sifatida ilmfan maydoniga kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda tilshunoslik va boshqa qator fan sohalarida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tilshunoslikda modallik so‘zlovchi shaxsning nutqiy faoliyat paytida nutq predmeti va obyektiv olamga nisbatan ifodalagan shaxsiy fikri, bahosi, munosabatini bildiradi.

3. Modallik inson ongida tashqi olamga, nutq predmeti va kommunikativ vaziyatga nisbatan shakllanib, uning nutqida prosodik, leksik va grammatik sath birliklari orqali ifodalanadi. O‘zbek tilshunosligida modallik, xususan, modal ma’noni ifodalovchi birliklar, morfologiyada modal so‘zlar, sintaksisda kirish bo‘laklar atamaları tarkibida o‘rganiladi.

4. So‘zlovchining tashqi olamga, nutq predmeti va kommunikativ vaziyatga nisbatan subyektiv munosabati.

Tilshunoslikda antropotsentrik nazariyaning rivojlanishi esa modallik hodisasini so‘zlovchi subyekt bilan bog‘lab o‘rganishni taqozo etgani holda nutqda so‘zlovchining xohish-istagini, shaxsiy fikr-mulohazalarini, emotsiya va ruhiy holatini ifodalovchi modal ma’nolarni subyektiv modallik atamasi ostiga birlashtirdi. Jumla mazmunini voqelik bilan bog‘lagan modal ma’nolar esa uning ziddi sifatida zamonaviy tilshunoslikda obyektiv modallik nomi bilan yuritiladi. Tilshunoslikda modallikning bunday zamonaviy tarzda talqin va tasnif etilishi shveysariyalik olim Sharl Ballining diktum va modus haqidagi qarashlariga asoslanadi.

<sup>40</sup> Sh.Shoaabdurahmonov va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent: O‘qituvchi, 381-b



Tilshunoslikda modallik nomi bilan yuritilib kelingan hodisa bugungi kunda xorij tilshunosligida modus, deb baholanmoqda. Modal soʻzlar, kirish boʻlaklar, feʼlning buyruq-istak mayli, yuklamalar, undov soʻzlar, gap tartibi va h.k. hozirda soʻzlovchining nutq predmeti, suhbatdoshi va kommunikativ vaziyatga nisbatan munosabatini, fikr-mulohazalari va his-tuygʻularini ifodalashi kuzatilmoqda.

Modal soʻzlar, aslida, mustaqil soʻzlardan kelib chiqqan. Masalan, aftidan, haqiqatan modal soʻzlari otdan kelib chiqqan; shubhasiz, tabiiy modal soʻzlari sifatdan oʻsib chiqqan. Demak, modal soʻzlar asl (oʻz) maʼnosini yoʻqotib, soʻzlovchining anglashilayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi vositaga aylangan soʻzlardir. Bunday soʻzlar tilda unchalik koʻp emas.

Modal soʻzlar gapda kirish soʻz, yaʼni kirishlar vazifasini bajaradi. Kirishlar gapning mazmuniga qoʻshimcha ravishda turli munosabatli maʼnolarni yuklaydi. Masalan: Ayni shu global iqtisodiy vaziyat sabab boʻlgan shekilli, iqtisodiyot boʻyicha bu yilgi Nobel mukofoti banklar va moliyaviy inqirozlar boʻyicha tadqiqotlari uchun Bernanke, Daymond va Dibvigga berildi. Mazkur gapda soʻzlovchi oʻzi aytayotgan fikrga qoʻshimcha tarzda taxminiy munosabatini “shekilli” soʻzi orqali ifodalayapti.

Modal soʻzlarni fikrning oʻzaro munosabati (xullas, demak, binobarin, qisqasi, umuman, masalan, chunonchi, jumladan, aksincha, avvalo, avvalambor, nihoyat), eʼtiborni tortish (aytganday, aytmoqchi, zotan), taʼkid (xususan, ayniqsa), emotsional maʼno (koshki, zora, yaxshiyamki, xayriyat, attang, afsuski, ajabo) kabilarni anglatuvchi modal maʼnoli soʻzlardan farqlash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oʻzbek tili grammatikasi. “Fan”, Toshkent.1975. 1-tom.
2. Gʻulomov A. Feʼl. Toshkent. Fan. 1984.
3. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. “Hoʻzirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1980.